



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Yusupov Ahmadbek Tajievich
Mehmonov Sultonali Umaraliyevich

INNOVATIVE MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT TO UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Yusupov Akhmadbek Tajievich
Mekhmonov Sultonali Umaraliyevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etishning innovatsion mexanizmlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi investitsiya jarayonlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning yangi yondashuvlarini shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, elektron davlat xizmatlari, raqamli investitsiya platformalari, sun'iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar, blokcheyn texnologiyalari va raqamli moliyaviy xizmatlarning investitsiya muhitini yaxshilashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda investitsiya siyosatini liberallashtirish, biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri baholangan. Tadqiqot davomida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirishning investitsion jozibadorlikka ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, innovatsion mexanizmlar, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This article analyzes the innovative mechanisms for attracting foreign direct investment (FDI) to Uzbekistan in the context of digital transformation from both theoretical and practical perspectives. The rapid development of the digital economy is shaping new approaches to organizing, managing, and financing investment processes. In this regard, the study highlights the role of e-government services, digital investment platforms, artificial intelligence-based analytical systems, blockchain technology, and digital financial services in improving the investment environment. Furthermore, it evaluates the impact of ongoing reforms in Uzbekistan aimed at liberalizing investment policy, simplifying business procedures, protecting investors' rights, and digitalizing public services on the inflow of foreign direct

investment. The research demonstrates that the development of digital infrastructure, increased transparency of investment processes, faster data exchange, and the improvement of public-private partnership mechanisms have a positive impact on enhancing the country's investment attractiveness.

Keywords: digital transformation, foreign direct investment (FDI), investment climate, innovative mechanisms, digital economy.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli dunyo mamlakatlari investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va xorijiy kapital oqimini ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Hozirgi davrda raqamli transformatsiya jarayonlari investitsiyalarni jalb etish mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida investitsiya jarayonlarini boshqarish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, investorlar bilan samarali aloqa o'rnatish hamda davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish xorijiy investorlar uchun qulay va shaffof muhit yaratmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimlari, raqamli investitsiya platformalari, sun'iy intellekt texnologiyalari, blokcheyn yechimlari va zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (FinTech) investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim vositalarga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda investitsiya siyosatini takomillashtirish, biznes muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini soddalashtirish va xalqaro kapitalni jalb qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq global investitsiya raqobati kuchayib borayotgan sharoitda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion mexanizmlarini yanada rivojlantirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va investitsiya jarayonlarining ochiqqligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar. Jadval ma'lumotlari asosida 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilganini ko'rish mumkin. Tahlil qilinayotgan davrda xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 0,3 mln AQSH dollaridan 2024-yilda 1,5 mln AQSH dollarigacha oshgan. Bu esa besh yillik davr mobaynida xorijiy investitsiyalar hajmi 5 barobarga ko'payganini anglatadi.

2020–2021-yillarda asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi deyarli o'zgarmagan bo'lib, 0,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu davrda investitsiya faolligining past bo'lishiga global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya oqibatlari,

xalqaro kapital oqimlarining qisqarishi va investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi cheklovlar ta'sir ko'rsatgan. Natijada o'sish sur'ati 100 foiz darajasida saqlanib qolgan.

2022-yildan boshlab xorijiy investitsiyalar oqimida sezilarli jonlanish kuzatilgan. Ushbu yilda investitsiyalar hajmi 0,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 33,3 foizga oshgan. Mutlaq o'sish 0,1 mln AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu davrda iqtisodiy faollikning tiklanishi, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar va xorijiy investorlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar muhim omil bo'lgan.

2023-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi keskin oshib, 0,9 mln AQSH dollariga yetgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 225 foizni tashkil etib, 0,5 mln AQSH dollariga ko'paygan. 2020-yil bazaviy ko'rsatkichiga nisbatan esa investitsiyalar hajmi 300 foizga oshgan. Ushbu o'sish mamlakatda investitsiya muhitining yaxshilanayotgani, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi loyihalarning amalga oshirilayotgani hamda xorijiy kapitalni jalb etishga qaratilgan islohotlarning natijasi sifatida baholanishi mumkin.

1-jadval

2020–2024-yillarda asosiy kapitalga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar dinamikasi (mln AQSH dollar)¹

Yillar	Investitsiyalar hajmi, mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, % (yillik)	Mutlaq o'sish, mln \$	2020-yilga nisbatan o'sish, %
2020	0,3	—	—	100,0
2021	0,3	100,0	0,0	100,0
2022	0,4	133,3	+0,1	133,3
2023	0,9	225,0	+0,5	300,0
2024	1,5	166,7	+0,6	500,0

2024-yilda esa xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 mln AQSH dollariga yetib, eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Yillik o'sish sur'ati 166,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan o'sish 500 foizga teng bo'lgan. Ushbu holat mamlakatda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish, investorlar uchun ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish natijasida xorijiy kapital oqimining ortayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar oralig'idagi dinamik tahlil asosiy kapitalga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning barqaror o'sish yo'nalishiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Kelgusida investitsiya hajmini yanada oshirish uchun raqamli investitsiya platformalarini rivojlantirish, investorlarga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va innovatsion loyihalarga xorijiy kapitalni faol jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma'lumotlari hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2020–2025-yillar davomida sezilarli darajada oshganini

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 29 682,0 mlrd. so'mdan 2025-yilda 281 128,8 mlrd. so'mgacha yetgan. Bu davr mobaynida investitsiyalar hajmi qariyb 9,5 barobarga oshib, mamlakatda xorijiy kapitalni jalb qilish siyosati samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori investitsiya hajmi 2025-yilda Namangan viloyatida qayd etilgan bo'lib, 39 607,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 42 barobar oshgan. Bu holat hududda sanoat loyihalari, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalar faollashganini ko'rsatadi. Shuningdek, Toshkent viloyati (34 674,4 mlrd. so'm), Navoiy viloyati (23 727,9 mlrd. so'm), Buxoro viloyati (20 635,9 mlrd. so'm) va Andijon viloyati (19 920,3 mlrd. so'm) yuqori investitsiya hajmiga ega hududlar qatoriga kiradi.

2020–2025-yillar davomida Buxoro viloyatida xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli o'sib, 719,4 mlrd. so'mdan 20 635,9 mlrd. so'mgacha oshgan. Bu hududda energetika, sanoat va infratuzilma loyihalarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Navoiy viloyatida ham investitsiyalar hajmi 757,1 mlrd. so'mdan 23 727,9 mlrd. so'mgacha oshib, kon-metallurgiya, qayta ishlash sanoati va yirik investitsiya loyihalarining ta'siri kuchli bo'lgan.

2-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd. so'm)²

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	29 682,0	29 910,6	39 750,0	91 204,9	150 529,8	281 128,8
Qoraqalpog'iston R.	203,7	170,6	383,0	1 834,8	2 235,9	11 780,9
Andijon	751,1	693,6	2 052,6	7 952,3	11 532,0	19 920,3
Buxoro	719,4	1 900,9	1 567,3	14 631,9	22 977,4	20 635,9
Jizzax	4 397,3	1 561,3	1 601,7	4 861,6	10 913,1	11 799,7
Qashqadaryo	4 295,5	1 675,1	1 380,7	4 166,9	7 208,9	12 866,6
Navoiy	757,1	2 160,6	2 682,4	6 938,7	11 019,8	23 727,9
Namangan	929,5	995,5	1 073,1	2 046,9	17 886,4	39 607,8
Samarqand	779,7	1 552,9	3 479,3	7 808,9	6 384,6	16 727,1
Surxondaryo	4 265,5	2 394,0	2 550,4	8 576,6	5 835,2	7 099,0
Sirdaryo	919,6	2 048,2	7 447,4	10 121,6	5 923,3	9 780,8
Toshkent vil.	4 371,7	5 868,4	4 079,5	6 600,3	18 647,4	34 674,4
Farg'ona	2 219,2	2 163,9	2 685,9	5 238,0	9 145,8	18 544,4
Xorazm	333,6	758,5	983,5	1 318,8	2 222,4	6 378,8

² O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi ham ijobiy o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Hududda xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 203,7 mlrd. so'mdan 2025-yilda 11 780,9 mlrd. so'mgacha oshgan. Ushbu o'sish hududda yangi sanoat loyihalari, qayta tiklanuvchi energiya va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda investitsiyalar hajmi nisbatan pastroq bo'lib qolmoqda. Xorazm viloyatida 2025-yilda 6 378,8 mlrd. so'm, Surxondaryo viloyatida esa 7 099,0 mlrd. so'm xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan. Bu hududlarda investitsiya salohiyatidan yanada samarali foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va investorlar uchun qo'shimcha rag'batlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, hududlar kesimidagi tahlil O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishini yanada muvozanatlashtirish uchun chekka hududlarda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, raqamli investitsiya platformalarini rivojlantirish va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Jadval ma'lumotlari asosida 2020–2024-yillar davomida O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada oshganini ko'rish mumkin. Umumiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 29 682,0 mlrd. so'mdan 2024-yilda 150 529,8 mlrd. so'mga yetgan bo'lib, ushbu davrda qariyb 5 barobarga oshgan. Bu mamlakatda investitsiya muhitining yaxshilanayotgani va xorijiy investorlar faolligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tarmoqlar kesimida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur sohada xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yilda 14 177,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 53 168,1 mlrd. so'mga yetgan. Bu umumiy investitsiyalarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilayotgan xorijiy kapitalning yuqoriligi mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchi yirik yo'nalish elektr, gaz, bug' va konditsiyalash faoliyati hisoblanadi. Ushbu tarmoqda xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 276,2 mlrd. so'mdan 2024-yilda 52 113,6 mlrd. so'mga oshgan. Ayniqsa, 2021-yildan boshlab ushbu yo'nalishda keskin o'sish kuzatilgan. Bu energetika sohasida, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektr ishlab chiqarish va infratuzilmaviy loyihalarga xorijiy investorlarning qiziqishi ortayotganini bildiradi.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalda o'zlashtirilgan
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar(mlrd. so'm)³

Iqtisodiy faoliyat turlari	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	29 682,0	29 910,6	39 750,0	91 204,9	150 529,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 172,3	2 037,5	960,3	3 023,3	. 732,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlar	6 849,0	1 758,0	2 652,0	4 301,3	7 299,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	14 177,1	11 018,1	16 806,9	37 680,5	53 168,1
Elektr, gaz, bug' va konditsiyalash	276,2	7 422,0	9 310,6	31 243,9	52 113,6
Suv ta'minoti va chiqindilar	101,3	8,4	—	31,6	870,8
Qurilish	1 750,9	2 459,4	3 103,3	5 651,0	6 058,7
Savdo va avtotransport ta'miri	1 052,4	1 074,4	1 610,3	2 957,7	2 708,6
Tashish va saqlash	76,9	655,6	250,3	676,1	1 479,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	182,2	305,6	220,9	506,5	2 569,4
Axborot va aloqa	468,4	841,6	1 005,8	1 500,1	2 021,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	26,4	1,6	38,7	255,9	327,4
Ko'chmas mulk operatsiyalari	1 073,6	294,6	775,5	1 459,5	1 976,9
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	19,5	874,3	1 088,8	523,3	—
Boshqaruv va yordamchi xizmatlar	192,9	81,8	35,0	65,5	1 315,8
Davlat boshqaruvi va mudofaa	23,7	—	—	—	70,9
Ta'lim	35,5	110,6	181,8	553,1	259,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	798,7	785,9	1 499,2	411,5	911,5
San'at, ko'ngilochar va dam olish	51,8	178,9	60,0	331,8	154,7
Boshqa xizmatlar	353,4	2,3	28,2	32,3	195,7
Turar joy qurilishi	—	—	122,5	—	6 297,0

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida ham ijobiy dinamika kuzatilgan. 2020-yilda 2 172,3 mlrd. so'm bo'lgan investitsiyalar 2024-yilda 10 732,3 mlrd. so'mga yetgan. Bu qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish va agroklastlar faoliyatini kengaytirish bilan bog'liq.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlar yo'nalishida investitsiyalar hajmi davr davomida o'zgaruvchan bo'lgan. 2020-yilda 6 849,0 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 7 299,1 mlrd. so'mga yetgan. Ushbu tarmoqda investitsiyalar hajmining nisbatan barqarorligi kon resurslarini o'zlashtirish, geologik qidiruv ishlari va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish loyihalari bilan izohlanadi.

Qurilish sohasida ham xorijiy investitsiyalar hajmi oshgan bo'lib, 2020-yildagi 1 750,9 mlrd. so'mdan 2024-yilda 6 058,7 mlrd. so'mga yetgan. Shuningdek, turar joy qurilishi yo'nalishida 2024-yilda 6 297,0 mlrd. so'mlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgani ushbu sohada yangi loyihalar faollashayotganini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohalarida ham ma'lum o'sish kuzatilgan. Jumladan, axborot va aloqa sohasidagi investitsiyalar 2020-yildagi 468,4 mlrd. so'mdan 2024-yilda 2 021,1 mlrd. so'mga oshgan. Bu raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya infratuzilmasi va IT xizmatlariga xorijiy investorlarning qiziqishi ortayotganini anglatadi.

Umuman olganda, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlariga yo'naltirilmoqda. Kelgusida investitsiyalarni xizmat ko'rsatish, innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarga kengroq jalb etish mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2020–2024-yillar davomida sezilarli darajada o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu davrda xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 29 682,0 mlrd. so'mdan 150 529,8 mlrd. so'mgacha oshib, mamlakatning investitsion jozibadorligi ortib borayotganini namoyon etdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xorijiy kapital asosan ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energetikasi, qishloq xo'jaligi, qurilish va tog'-kon sanoati kabi strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan.

Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati va energetika sohalarida investitsiyalar hajmining keskin oshishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va texnologik yangilanish jarayonlarining jadallashayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, axborot va aloqa, xizmat ko'rsatish hamda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq sohalarda investitsiya faolligining oshishi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'nalishiga o'tayotganini ko'rsatadi.

Biroq xorijiy investitsiyalarni yanada samarali jalb qilish uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya oqimlarini muvozanatlashtirish, yuqori texnologiyali loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda investorlar uchun qulay raqamli va institutsional muhitni shakllantirish zarur. Umuman olganda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror

o'sishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib, kelgusida ularning hajmini oshirish mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Busse M., Hefeker C. Political Risk and FDI // *European Journal of Political Economy*. 2007. Vol.23(2). P.397–415.
2. Egger P., Winner H. Corruption and FDI // *European Journal of Political Economy*. 2005. Vol.21(4). P.932–952.
3. North D.C. **Institutions, Institutional Change and Economic Performance**. Cambridge: CUP, 1990. 152 p.
4. Rodrik D. Institutions for High-Quality Growth // *Studies in Comparative International Development*. 2000. Vol.35(3). P.3–31.
5. Acemoglu D., Robinson J. **Why Nations Fail**. New York: Crown, 2012. 529 p.
6. Porter M.E. **The Competitive Advantage of Nations**. New York: Free Press, 1990. 855 p.
7. Lim E.G. Determinants of FDI // IMF Working Paper. 2001.
8. UNCTAD. **World Investment Report**. Geneva: United Nations. 2018–2024 yy.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – 328 b.
10. G'ozibekov D.G., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. – 110 b.
11. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O'ME davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. – B. 145.
12. A.Sh.Bekmurodov, Y.K.Kariyeva., I.U.Nematov., D.X.Nabiyev., N.T.Kattayev. Xorijiy investitsiyalar. Toshkent: Iqtisodiyot, O'quv qo'llanma.
13. Булатов, А.С. Мировая экономика: учебник. / А.С. Булатов. – М.: Экономист, 2014. – 734с